

DUKKAKLI MAHSULOTLARNI YETISHTIRISH TENDENTSIYALARI

Qudratov Alisher Alijanovich

Guliston Davlat Universiteti, o'qituvchisi

alisherqudratov811@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14724750>

Annotatsiya: Mamlakatimizda dukkakli mahsulotlar almashlab ekish uchun asosiy o'simliklar hisoblanadi. Jumladan, mosh asosan dehqonlar tomonidan etishtirilib, almashlab ekish uchun asosiy hisoblanadi. Bu mahsulot yuqori bozor qiymatiga ega bo'lib, tuproq namligi kam bo'lsa ham oson o'sadi. Shuningdek, minimal mehnat sarfi bilan o'stirilishi mumkin bo'lgan hayvonlar uchun ozuqa varianti ham hisoblanadi.

Kalit so'zlar: don va dukkakli ekinlar, iste'mol ratsionini, yumshoq bug'doy, duragay, xosildorlik, gumos, o'g'it takroriy ekin.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi yil sayin oshib bormoqda. Jumladan, dukkakli mahsulotlarni etishtirish hajmi ham oshib bormoqda. Mamlakatimizda 2020 yilda 401612 tonna dukkakli don ekinlari etishtirilgan bo'lsada, 2022 yilga kelib etishtirilgan dukkakli mahsulotlar hajmi 469483 tonnani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2023 yilda 2020 yilga nisbatan 16,9 foizga oshgan (2.6-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020-2023 yillarda Sirdaryo va Samarqand viloyatlaridan tashqari qolgan barcha hududlarda dukkakli don ekinlarini etishtirish hajmi oshganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu davrlarda dukkakli don ekinlarini etishtirish hajmi Sirdaryo viloyatida 37,5 foizga, Samarqand viloyatida esa 14,5 foizga kamaygan. Dukkakli don ekinlarini etishtirish hajmi ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida keskin oshgan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 2020 yilda 8139 tonna dukkakli don ekinlari etishtirilgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 2020 yilga nisbatan 3,1 martaga oshib, 35027 tonnani tashkil etgan. Buxoro viloyatida ham ushbu davrlarda dukkakli don ekinlarini etishtirish hajmi 3,0 martaga oshganini ko'rishimiz mumkin.

2.6-jadval

Mamlakatimizda etishtirilgan dukkakli don ekinlari dinamikasi, tonna¹

Viloyatlar nomi	Yillar				2023 y.ni 2020 y.ga nisbati, %
	2020	2021	2022	2023	
Respublika bo'yicha jami	401612	439835	469483	511400	127,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8139	14845	25073	35027	3,1 marta
Andijon	27134	25996	29623	28531	105,1
Buxoro	8708	18769	18178	25345	3,0 marta
Jizzax	46614	48496	50086	54402	116,7

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат статистика агентлигининг маълумотлари асосида ҳисоб-китоб қилинган.

Qashqadaryo	11445	11997	10659	12519	109,3
Navoiy	7225	8609	8914	8911	123,3
Namangan	50089	65097	69741	86124	171,9
Samarqand	112549	105376	91161	96209	85,5
Surxondaryo	25440	29811	31261	36711	144,3
Sirdaryo	43287	40100	52549	27064	62,5
Toshkent	15998	20651	25352	25320	158,2
Farg'ona	41182	43355	52323	70114	170,2
Xorazm	3802	6733	4563	5123	134,7

Shuningdek, monografik tadqiqot sifatida o'rganilgan Sirdaryo viloyatida ham dukkakli don ekinlarini etishtirish hajmi oshgan. Jumladan, viloyatda 2020 yilda 43287 tonna, 2021 yilda 40100 tonna, 2022 yilda 52549 tonna, dukkakli don ekinlari etishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2023 yilda 2020 yilga nisbatan 37,5 foizga tushib ketgan, 27064 tonnani tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyatda 2023 yil yog'ingarchilik kuz oyida yuqori bo'lganligi va dala maydonlarini sug'orishda suv muammosi hisobiga dukkakli don ekinlarini etishtirish va hosilni yig'ib olishda hosilni keskin kamayib ketishi kuzatilgan.

Mamlakatimizda etishtirilgan dukkakli mahsulotlarning orasida no'xat, mosh va loviya yuqori o'rinni egallaydi. Ayniqsa, mosh etishtirish katta ahamiyatga ega. Jumladan, mamlakatimizda 2022 yilda 332443 tonna mosh etishtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020 yilga nisbatan 22,6 foizga oshgan. 2020 yilda etishtirilgan mosh hajmi 286007 tonnani tashkil etib, bu ko'rsatkich jami dukkakli mahsulotlarning 71,2 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2021 yilda 69,4 foiz va 2022 yilda 70,8 foizga teng (2.7-jadval).

2.7-jadval

Mamlakatimizda etishtirilgan dukkakli mahsulotlarning hajmi, tonna²

Mahsulotlar nomi	Yillar				2023 y.ni 2020 y.ga nisbati, %
	2020	2021	2022	2023	
Jami dukkakli mahsulotlar	401612	439835	469483	511400	127,3
sh.j.: no'xat	32933	34287	40368	36300	110,2
jamiga nisbatan, %	8,2	7,8	8,6	7,0	-
Mosh	286007	305468	332443	360409	126,0
jamiga nisbatan, %	71,2	69,4	70,8	70,4	-
Loviya	77269	73688	79561	93500	121,0
jamiga nisbatan, %	19,3	16,8	16,9	18,2	-
boshqa dukkakli don ekinlari	5403	26392	17110	21191	4 marta
jamiga nisbatan, %	1,3	6,0	3,7	4,1	-

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, dukkakli mahsulotlarni etishtirish hajmida moshdan keyin loviya yuqori o'rinda turadi. Jumladan mamlakatimizda 2020 yilda 77269 tonna, 2021 yilda

² Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат статистика агентлигининг маълумотлари асосида ҳисоб-китоб қилинган.

73688 tonna va 2022 yilda esa 79561 tonna va 2023 yilda 93500 tonna loviya etishtirilgan. Bu ko'rstakich 2023 yilda 2020 yilga nisbatan 121,0 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar jami dukkakli mahsulotlarga nisbatan olganda, mos ravishda 19,3, 16,8 va 16,9 foizni tashkil etadi.

Oxirgi yillarda dukkakli mahsulotlar ichida no'xat etishtirish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda 2020 yilda 32933 tonna no'xat etishtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilda 2020 yilga nisbatan 10,2 foziga oshib, 36300 tonnani tashkil etgan. 2020 yilda etishtirilgan no'xat hajmi jami dukkakli mahsulotlarning 8,2 foizini tashkil etadi. Shuningdek, bu ko'rsatkich 2021 yilda 7,8 foizni, 2022 yilda esa 8,6 foizni va 2023 yilda 7,0 foizni tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, no'xat, mosh va loviyadan tashqari mamlakatimizda 2020 yilda 5403 tonna boshqa dukkakli mahsulotlar etishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2023 yilda 21191 tonnani tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 4 martaga oshgan. Etishtirilgan boshqa dukkakli mahsulotlarning ulushi jami dukkakli mahsulotlarga nisbatan 2020 yilda 1,3 foiz, 2021 yilda 6,0 foizni va 2022 yilda 3,7 foizni va 2023 yilda 4,1 foizni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda dehqonlarda boshqa dukkakli mahsulotlarni etishtirish bo'yicha tajriba ortib bormoqda.

Dukkakli mahsulotlar orasida mosh alohida ahamiyatga ega bo'lganligi bois, 2020-2023 yillarda mamlakatimizda mosh etishtirish hajmi ortib bormoqda. Ayniqsa, bu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida 3,7 martaga, Buxoro viloyatida esa 3,0 marta, Qashqadaryo viloyatda 2,9 martnii tashkil etgan. Lekin, shu davrlarda Sirdryo viloyatida mosh etishtirish 42,5 foizga, Samarqand viloyatida esa 19,0 foizga kamaygan. Bundan ko'rinib turibdiki, oxirgi yilda mamlakatimizda mosh etishtirish hajmi Sirdryo viloyatida keskin pasaygan. Qolgan hududlarda shu davrlarda mosh etishtirish hajmi turli darajada o'sish ko'rsatkichiga erishilgan (2.8-jadval).

2.8-jadval

Mamlakatimizda etishtirilgan mosh hajmi, tonna³

Viloyatlar nomi	Yillar				2023 y.ni 2020 y.ga nisbati, %
	2020	2021	2022	2023	
Respublika bo'yicha jami	286007	305468	332443	360409	126,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6353	11781	20877	23940	3,7 mart
Andijon	20871	18470	20412	22645	108,4
Buxoro	4253	13235	10593	12779	3 marta
Jizzax	36365	38165	38738	51953	142,8
Qashqadaryo	2842	5211	4603	6250	2,9 marta
Navoiy	4322	5443	6438	7089	164,0
Namangan	32794	32185	50732	62100	189,3
Samarqand	69684	71252	47569	56456	81,0

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат статистика агентлигининг маълумотлари асосида ҳисоб-китоб қилинган.

Surxondaryo	22733	26002	26519	27613	121,4
Sirdaryo	41640	36326	44747	23976	57,5
Toshkent	9504	10114	18416	19251	2,5 marta
Farg'ona	31343	31051	39112	41147	131,2
Xorazm	3303	6233	3686	5210	157,7

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mosh etishtirish hajmi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatidan keyin Qashqadaryo, Namangan, Toshkent va Navoiy viloyatlarida yuqori o'sish tendentsiyasiga erishilgan. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 2020 yilda 2842 tonna mosh etishtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilda 2020 yilga nisbatan 2,9 marta oshib, 6250 tonnani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Namangan viloyatida 2023 yilda 2020 yilga nisbatan 89,3 foiz ko'p, ya'ni 62100 tonna mosh etishtirilgan. Navoiy viloyatida esa, mosh etishtirish hajmi 2023 yilda 2020 yilga nisbatan 64,0 foizga oshgan. Sirdaryo viloyatida 2020 yilda 41640 tonna, 2021 yilda 36326 tonna va 2022 yilda 44747 tonna mosh etishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2023 yilda 2020 yilga nisbatan 42,5 foizga tushib ketganini ko'rishimiz mumkin.

References:

1. Zotikov V.I. Nauchnoe obespechenie proizvodstva zernobobovo'x i krupyano'x kultur v RF: sostoyanie i perspektivo' G'G' Zernobobovo'e i krupyano'e kulturo'. - 2013. - № 2 (6). - S. 11-18.; 44-47.
2. Mazloev V.Z. Otsenka vozmojnostey subsidirovaniya otechestvenno'x selxoztovaroproizvoditeley v usloviyax chlenstva Rossii v VTO G'G' Ekonomika selskoxozyaystvenno'x i pererabato'vayuhix predpriyatij. - 2012. - №7. - S.30-33.
3. To'raev A. Kuzgi bug'doy va takroriy ekinlar. – "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali, 2001. - 6-son. – B. 40 b.
4. Ergashev N. Takroriy ekilgan moshning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi. - "AGRO ILM" jurnali, 2017. - 5-son. – B. 34.
5. Xoliqov B., Iminov A. G'alladan bo'shagan maydonlarda mosh etishtirish. - "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" j, 2016. - 6-son. – B. 6.
6. **Arjhel Domingo.** Mung bean production as a source of livelihood among farmers in a municipality in the Philippines: Challenges and opportunities. **Asian Journal of Agriculture and Rural Development, 13(2) 2023: 130-137.**
7. Quدراتov A.A. Sug'oriladigan maydonlarda mosh etishtirishning iqtisodiy ko'rsatkichlari G'G' "Xorazm ma'mun akademiyasi" jurnali. – Xiva, 2023. - № 10G'1(107). - B. 120–123.